

60710700-Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (mashinasozlik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

60710700-Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (mashinasozlik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Bakalavriat dasturining ta’lim shakllariga ko‘ra o‘qishni me’yoriy muddatlari kunduzgi ta’limda 4 yil.

60710700-Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (mashinasozlik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan va texnika sohasidagi ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, u mashinasozlikning elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini o‘z ichiga qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- mashinasozlik va ishlab chiqarish korxonalarining elektr texnik majmualari va tizimlari;
- elektr texnologik uskunalar va elektr texnik qurilmalarni ekspluatatsiya qilish jarayonlari, ta’mirlash, sozlash va texnik servis xizmat ko‘rsatish tizimlari;
- turli maqsadlarga mo‘ljallangan elektr yuritmalar, elektr o‘zgartkichlari va elektr apparatlari.
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta’minalash vositalari; kasb-hunar kollejlaridagi o‘quv-tarbiya jarayoni.